Kimyo sanoatimiz tarixi

https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/company/history

Kimyo sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlar sirasiga kiradi va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishni jadallashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib mineral o‘g‘itlar chiqaruvchi korxonalarni qurish orqali tashkil topgan.
Respublikaning zamonaviy kimyo sanoati tarixi Shorsuv oltin gugurt koni 1932-yilda ishga tushirilishi bilan boshlanadi.
1940-yilda kimyo sanoatining eng yirik korxonasi — Chirchiq elektrkimyo kombinati (bugungi kunda “Maksam-Chirchiq” AJ) mahsulot bera boshladi.
1962-yilda Farg‘ona azotli o‘g‘itlar zavodi(bugungi kunda “Farg‘onaazot” AJ) ishga tushirildi.
1964 iylda Navoiy kimyo kombinati (bugungi kunda “Navoiyazot” AJ) mahsulot bera boshladi.
1969-yilda Olmaliq kimyo zavodi (bugungi kunda «Ammofos-Maksam» AJ) ishga tushirildi.
Hozirgi vaqtda “Maksam-Chirchiq”, “Navoiyazot” va “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyatlari azotli o‘g‘itlar — ammiakli selitra, karbamid, ammoniy sulfati ishlab chiqaradilar. «Ammofos-Maksam» va “Qo‘qon superfosfat zavodi” aksiyadorlik jamiyatlar fosforli o‘g‘itlar — ammofos, suprefos, oddiy ammoniyli superfosfat, ammoniysulfofosfat va nitrokalsiyfosfat — ishlab chiqaradilar. Ularni xom ashyo bilan “Qizilqum fosforit kompleksi” MCHJ ta’minlaydi.
Kompaniya korxonalarini ishlab chiqaradigan mahsulotlar turlaridan kelib chiqib quyidagi ishlab chiqarish majmualarga bo‘lish mumkin:
• mineral o‘g‘itlar, noorganik moddalar va energetika, oltinkon va kimyo sanoatlari uchun kimyo reagentlar ishlab chiqarish majmuasi;
• organik kimyo, sun’iy tola va polimer materiallar ishlab chiqarish majmuasi;
• o‘simliklarni muhofaza qilish kimyo vositalari ishlab chiqarish majmuasi;
• kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarish majmuasi.
“O‘zkimyosanoat” AJ korxonalarida 180 dan ziyod turdagi kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi.
Ishlab chiqarilgan kimyo mahsulotlari xalq xo‘jaligining ko‘plab tarmoqlariga xususan, qishloq xo‘jaligi, mebel sanoati, tog‘-kon sanoati, elektrotexnika sanoati, neft va gaz sanoati, qurilish sanoati, avtomobilsozlik, oziq-ovqat sanoati va boshqalarga yetkazib beriladi.